INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://science-research.org.uz/index.php/ITSE

FARG‘ONA VILOYATIDA SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI KADRLAR MASALASI (1930–1950)

Karimova Feruzaxon Mutalipovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti
mutalipovna.85@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1930–1950-yillar davrida O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining holati, uning muammolari va rivojlanish jarayonlari atroflicha tahlil etilgan. Aholi punktlarida sanitariya ahvolining yomonligi, ichimlik suvi va tibbiy xizmatning yetishmasligi, yuqumli kasalliklar keng tarqalishi kabi muammolar tasvirlangan. Qishloq joylarda tibbiy xizmat ko‘rsatishning yetarli darajada emasligi, shifokorlar va tibbiy kadrlar yetishmasligi alohida ta’kidlangan. Shu bilan birga, tibbiyot ta’limi sohasida darsliklar bilan ta’minlanish, “o‘zbeklashtirish” siyosatidagi kamchiliklar, talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlarning yomonligi va ta’lim sifati haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Maqolada sog‘liqni saqlash muassasalarini qurishdagi kechikishlar, kadrlarning doimiy almashinishi, siyosiy tarbiya ishlarining yo‘lga qo‘yilishi va tibbiy kadrlar tayyorlashdagi kurslar tizimi ham qamrab olingan. Namangan viloyati misolida 1950-yillar oxirida sog‘liqni saqlash sohasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgani, yangi muassasalar tashkil etilgani va kadrlar siyosatiga e’tibor kuchaygani qayd etilgan. Mazkur maqola O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining shakllanish va murakkab rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Sog‘liqni saqlash, tibbiyot ta’limi, shifokor kadrlar, O‘zbekiston tarixi, 1930–1950-yillar, qishloq tibbiyoti, sanitariya ahvoli, “O‘zbeklashtirish” siyosati, tibbiy muassasalar, yuqumli kasalliklar, tibbiy kadrlar yetishmovchiligi, tibbiyot texnikumlari, Namangan viloyati, davlat siyosatining ijrosi, sog‘liqni saqlash islohotlari

Аннатация: В статье дается подробный анализ состояния здравоохранения в Узбекистане в 1930–1950-е годы. Описываются проблемы плохой санитарии в населенных пунктах, отсутствия очищенной воды и медицинского обслуживания, а также совет безопасности. Подчеркивается недостаточный уровень медицинского обслуживания в сельской местности, недостаточно подчеркнутое, и нехватка медицинских кадров. В то же время обсуждаются проблемы обеспечения учебниками, связанными с медицинским образованием, проблемы политики «узбекизации», условия для студентов и качество образования. В статье также рассматриваются задержки в строительстве здравоохранения, постоянная текучесть кадров, налаживание политико-воспитательной работы, система курсов по подготовке медицинских кадров. В случае с Наманом после 1950-х годов был создан региональный подчиненный сектор здравоохранения, созданы новые, усилена кадровая политика. Это служит важным источником для изучения сложных процессов формирования и организации сектора здравоохранения в Узбекистане.

Ключевые слова: история сохранения, система образования, 1950-е годы, система здравоохранения Узбекистана, система здравоохранения, политика «узбекизации», медицинские данные, медицинские кадры, подготовка медицинских кадров, медицинские техникумы, Наманганская область, реализация государственной политики, медицинское обслуживание.

Annatation: This article provides a comprehensive analysis of the state of the healthcare system in Uzbekistan in the 1930s–1950s, its problems, and development processes. It describes problems such as poor sanitation in settlements, lack of drinking water and medical services, and the widespread spread of infectious diseases. The insufficient level of medical services in rural areas, the

shortage of doctors and medical personnel are highlighted. At the same time, information is also provided about the provision of textbooks in the field of medical education, shortcomings in the "Uzbekization" policy, poor conditions created for students, and the quality of education. The article also covers delays in the construction of healthcare institutions, constant turnover of personnel, the establishment of political education work, and the system of courses for training medical personnel. In the case of Namangan region, it is noted that in the late 1950s, positive changes were observed in the healthcare sector, new institutions were established, and attention to personnel policy was increased. This article serves as an important source for studying the formation and complex development processes of the healthcare system in Uzbekistan.

Keywords: Healthcare, medical education, medical personnel, history of Uzbekistan, 1930–1950s, rural medicine, sanitary conditions, "Uzbekization" policy, medical institutions, infectious diseases, shortage of medical personnel, medical colleges, Namangan region, implementation of state policy, healthcare reforms

KIRISH

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimi mustamlaka davridan keyingi yillarda jiddiy muammolar va yetishmovchiliklar bilan rivojlana boshladi. Ayniqsa, 1930–1950-yillar davrida tibbiy xizmat ko‘rsatish, kadrlar tayyorlash, sog‘liqni saqlash muassasalarini qurish va ularni jihozlash sohalarida jiddiy kamchiliklar kuzatildi. Aholi, ayniqsa qishloq joylarida, shifokorlarga, darmongohlarga va asosiy sanitar xizmatlarga yetarlicha ega emas edi. Shu bilan birga, tibbiyot ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi sust, kadrlar yetakchi malakalarga ega bo‘lmagan va darsliklar yetishmasligi ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu maqolada aynan shu davrdagi sog‘liqni saqlash tizimining ahvoli, muammolari, islohotlari va natijalari to‘g‘risida so‘z boradi. Maqsad – O‘zbekistonda tibbiyot sohasining tarixiy rivojlanishini tahlil qilish va undan chuqur xulosalar chiqarish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aholi punktlarini obodonlashtirish, ularning sanitar ahvolini yaxshilash ham yomon bo‘lgan. Ularning aksariyatida aholining ichimlik suvi bilan ta’minlash, chiqindilardan tozalash qoniqarli emas edi. Shuningdek, uy-joylar ham qoniqarli emas edi. Aholi juda zich yashagan, umumiy hammomlar yetishmagan. Bunday sanitar ahvol natijasida O‘zbekistonda yuqimli kasalliklar, jumladan qorin tifi, toshmali tif, qizilcha (skarlatina) epidemiyalari tez-tez bo‘lib turgan[1].

Sog‘liqni saqlash ishlarida eng zaif joylar sovxoz, kolxoz va qishloqlar edi. 26 ta chorvachilik sovxoz va kolxozlaridan atiga 3 ta sovxozda shifokorlar faoliyat yuritgan. Qishloqlarda tibbiy yordam ko‘rsatish ham miqdor ham sifat jihatidan orqada edi. Qishloqlarda 1 nafar shifokorga to‘g‘ri keladigan aholi soni shahardagiga qaraganda 2,5 barobar ko‘p edi. Qishloqlarda shifokorlarning transportlari yo‘qligi, yo‘llarning yomonligi va shifokorlarning rayon markazlarida faoliyat yuritishini hisobga olganda qishloqlar tibbiy ko‘rsatish bo‘yicha ancha orqada ekanligi ko‘rinadi, masalan, Marg‘ulon va Beshariqda shunday holat kuzatilgan. Shaharlar va qishloqlarda sog‘liqni saqlash muassasalarida kadrlar bilan ta’minlash muammolik masalalardan biri edi. Respublikada 1934-yilda 1 nafar shifokorga 2 tadan ortiq lavozim, 1 nafar o‘rta ma’lumotli tibbiy xodimga 1,3 ta lavozim to‘g‘ri kelgan. Shuninng uchun Respublikada tibbiy xodimlarga sharoit yaratib, mavjud kadrlarni saqlab qolish, hamda tibbiyot o‘quv yurtlarida kadrlarni tayyorlash ishini yaxshilash masalasi dolzarb bo‘lgan[2]. Tibbiyot o‘quv yurtlarida o‘qitish sifatini va talabalarga yaratilgan sharoitni yaxshilash maqsadida yangi o‘quv korpuslari, yotoqxonalar qurish, darsliklar bilan, ayniqsa o‘zbek tilidagi darsliklar bilan ta’minlash lozim edi. Bundan tashqari O‘zbekiston davlat nashriyoti o‘zbek tilida tibbiyotga oid darsliklar chop etish muntazam ravishda bajarmagan, jumladan 1933-1934-yillarda darsliklar chop etish to‘liq barbot qilingan. O‘zbekiston Davlat universiteti tibbiyot fakulteti va O‘rta Osiyo medisina universiteti o‘qish sifatini yaxshilashga yetarlicha e’tibor berilmagan. Jumladan, O‘rta Osiyo medisina universitetida

[1] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 544-иш, 9-варақ.
[2] Ўша жойда.

SSSR markaziy ijroiyay komitetining sessiyasi muddatlari to‘g‘risidagi qarori buzilgan va 1933-1934-yillari o‘quv yili bahorgi sessiyasi bahar, yoz va kuz faslida davom etgan va 1934-yilning 28-sentyabrda 304 ta akademik qarzdorlik mavjud bo‘lgan. Bu o‘quv muassasaning o‘quv bo‘limining ishi qoniqarsiz bo‘lib, 1 o‘quv yilida 4 nafar o‘quv bo‘limi mudiri almashgan. Shuningdek, talabalarni darsliklar bilan ta’minlash ham qoniqarsiz bo‘lib, 25 nafar talabaga 2 ta 3 ta dasrlik berilgan. Bundan tashqari o‘qituvchilar tarkibini “o‘zbeklashtirish” ishida ham jiddiy kamchiliklar mavjud edi. O‘rta Osiyo tibbiyot universiteti talabarining 49.06 % mahalliy millat vakillari bo‘lsada, o‘zbek tilida o‘qitish qoniqarsiz edi. Darsliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. Mahalliy millat vakillaridan yoki o‘zbek tilini biladigan malakali o‘qituvchilar yetishmas edi, jumladan 230 nafar professor o‘qituvchidan, 21 nafarigina mahallik millat vakillari, ulardan 1 nafari professor, 18 nafari assistent bo‘lgan. Ushbu institut talabalari va professor o‘qituvchilariga qulay yashash sharoiti yaratilmagan edi. Uning yotoqxonasi juda tiqilinch bo‘lib, 1 nafar talabaga turar joy minimal normasining 3,1 qismigina to‘g‘ri kelgan, eng zarur bo‘lgan jihozlar stol, stul va taburetkalar yetishmagan. Isitish va yoritish tizimi yaxshi ishlamagan. Yotoqxonalar tartibsiz va iflos bo‘lgan. Ba’zi yotoqxonalar yashashga mos bo‘lmagan, poli syement va zax bo‘lgan. Kichkina kurslardagi talabalarning bir qismida kalish yaxshi oyoq kiyim, yetarlicha ich kiyim bo‘lmagan va choyshabsiz joylarda yotishgan[3].

O‘zbekiston davlar universiteti tibbiyot fakulteti ham juda yomon jihozlangan, qishda yonilg‘i bilan ta’minlanmagan, ba’zi xonalardagi derazalarga oynalar qo‘yilmagan. Tekshirishlar natijasida 46 nafar talabadan 3 nafarini bit bosgani aniqlangan. Ba’zi yotoqxonalar kerasin lanpalar bilan yoritilgan. Ko‘pincha o‘qituvchilar turar joylar bilan ta’minlanmaganligidan kafedralarda yashagan[4].

Sog‘liqni saqlash muassasalarining qurilishi vaqtida tugatilmasdan, cho‘zilishi tez-tez uchrab turgan. Jumladan, Zelenskiy, Termiz, Sarosiyodagi shifoxonalar 1931-yilda boshlangan bo‘lsa, 1931 yilda ham tugatilmagan. Sarosiyodagi shifoxonaning qurilishi 1934 yil 64 % ga bajarilgan, shu yilning noyabr oyida 31 % qolgan edi. Chunki shifoxonadagi barcha yog‘achlar rayon tashkilotlari tomonidan boshqa ehtiyojlar uchun olib ketilgan. Xatirchi rayon shifoxonasi ham 1931-yildan boshlab qurila boshlagan, hamda, 1933-yilda qurilishi tugatilmagan shifoxona binosi rayon tashkilotlari tomonidan ombor sifatida ishlatilgan. Bundan tashqari ba’zi sog‘liqni saqlash muassasalari boshqa maqsadlarda ishlatilgan holatlar ham uchragan, Piskentda ham shifoxonaning bir qismini Ichki ishlar vazirligi bo‘limi tomonidan egallangan edi[5].

Sog‘liqni saqlash tizimida jumladan sog‘liqni saqlash xalq komissarligi xalq aparatida “o‘zbeklashtirish” ishlari yaxshi olib borilmagan. Ya’ni mahalliy aholi bu yerda ishlayotgan xodimlarning 10% ni tashkil qilgan. Shuningdek, boshqa davolash proflaktika muassasalarida “o‘zbeklashtirish” ishlari yomon ahvolda edi. Masalan Toshkentdagi Roza Lyuksemburk nomidagi shifoxonadagi xodimlarning atiga 10% ni mahalliy millat vakillari tashkil etgan. Shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimida o‘zbek tilini o‘rganish ochiqchasiga inkor etilgan holatlar mavjud edi. Masalan, Buxoro shahri sog‘liqni saqlash bo‘limida tashkil etilgan o‘zbek tili darslariga xodimlar kelmaganligi sababli o‘qituvchini ishdan bo‘shatib, darslarni to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Bundan tashqari sog‘liqni saqlash rayon boshqaruv aparatlarida ham kadrlar yetishmagan. Jumladan, 1934-yilda 9 ta rayonning sog‘liqni saqlash bo‘limlari doimiy xodimlar bilan to‘ldirilmagan. 13 tasining esa rahbarlari yetarli malakaga ega emas edi. Shuningdek, boshqaruv aparatidagi xodimlarning qo‘nimsizligi kuzatilgan, qator rayonlar Molotov, Marhamat, Kaganovich, Marg‘ulon , Rashilov va boshqa rayonlarda 3 yil ichida 5-6 marta mudir almashgan[6]. Ba’zi rayonlarda bu raqamlar rekort darajaga yetgan, jumladan Stalin rayonidan mudir 11 marta, Izboskan rayonida 15 marta o‘zgargan. Bunday holat sog‘liqni saqlash bo‘limlarida ishlar ma’suliyatsizlik bilan olib borilgan[7].

[3] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 544-иш, 10-варақ.
[4] Ўша жойда.
[5] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 544-иш, 12-варақ.
[6] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 544-иш, 13-варақ.
[7] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 544-иш, 14-варақ.

Hujjatlarda sog‘liqni saqlash muassasalarida partiya a’zolari kamligi tanqit ostiga olingan. Jumladan, Toshkent shahridan 3 ta yirik tibbiyot muassasalarida ya’ni, ikkinchi shahar shifoxonasida akusher-ginekologiya shifoxonasida va yuqimli kasalliklar shifoxonasidagi partiya tashkilotlari birlashgan bo‘lib, unda jami 14 nafar partiya **a’zo**si va partiya a’zoligiga nomzodlar borligi tanqid qilingan[8].

1917-yilgacha O‘zbekiston **hudud**ida tibbiyot xodimlarining soni ancha kam bo‘lib, 1914-yilda 117 nafar shifokor, 54 nafar tish shifokori, 170 nafar feldsher, 956 nafar akusher va 85 nafar farmasevt faoliyat yuritgan[9].

1920-yilda O‘rta Osiyo davlat tibbiyot universiteti tashkil etilib, shifokorlar tayyorlay boshladi. Shu bilan birga o‘rta ma’lumotli tibbiyot xodimlarini tashkil etish uchun qator tibbiyot o‘quv muassasalari tashkil etildi. Ayniqsa, kurslar tashkil etish orqali kadrlar tayyorlana boshladi. Jumladan o‘lka musulmon feldsher maktabi mahalliy aholi uchun akusherlik kurslari, **hamshira**lar tayyorlash kurslari, sanitar turar joy instrukturlari kurslari, dorixona assistentlari kurslari, o‘rta kimyo formasevtika instituti faoliyat olib borgan. Tibbiyot fakultetida mashxur professor o‘qituvchilar faoliyat yuritgan bo‘lsa, o‘rta tibbiyot muassasalari moddiy tomondan tomondan ta’minlanishi og‘ir ahvolda bo‘lgan. Natijada faqat ikkita maktab O‘lka musulmonlar feldsher maktabi va akusherlar tayyorlash kursi davlat byudjeti hisobidan moddiy mablag‘ bilan ta’minlandi. Qator qiyinchiliklarga jumladan, o‘quvchilarning yetarli darajada tayyorgarligi bo‘lmaganligi, o‘qitish tizimi zaif bo‘lganligiga qaramasdan sog‘liqni saqlash **xalq komissarligi** tibbiyot o‘quv muassasalarini rivojlantirishga harakat qildi. 1923-yilda feldsherlar maktabi tibbiyot texnikomiga aylantirildi, unda shifokor yordamchisi (lekkom) va akusherlik bo‘limlari tashkil etildi[10].

1925 yilda Farg‘onada tibbiyot texnikomi, 1927-yilda Samarqandda, 1930-yil Buxoroda tibbiyot texnikomlari tashkil etildi. 1930-yil Samarqandda Respublika shifoxonasi bazasida O‘zbekiston davlat tibbiyot instituti o‘z faoliyatini boshladi. Tibbiyot institutlarida ishchi talabalarni tayyorlash uchun Namanganda (1930-yil), Toshkentda 1932-yil ishchi fakultetlari tashkil etiladi, Qo‘qonda esa 1932-yilda[11].

1934 yilga kelib O‘zbekistonda 2 ta tibbiyot oliy ta’lim muassasasi, 4 ta tibbiyot texnikomi, 3 ta tibbiyot ishchi fakultetlari faoliyat yuritgan[12].

O‘rta tibbiyot o‘quv muassasalariga mahalliy aholi vakillirini jalb qilish bo‘yicha ma’lum yutuqlarga erishildi, ammo tibbiyot muassasalaridagi talabalar ichida mahalliy millat vakillari kamchilikni tashkil qilar edi. Bu birinchi navbatda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilarining kamligi bilan izoxlanadi, talabalarning asosiy qismi ishchilar va kolxozchilar bo‘lib, 1932-34-yillarda kolxozchilar soni ortgan. Tibbiyot oliy ta’lim muassasalariga kolxozchilarni jalb qilish payst darajada bo‘lgan, buning sababi rayonlarda 9 yillik maktablar yetarli bo‘lmagan, xotin-qizlarni o‘quv muassasalarga jalb qilishda ham ma’lum natijalarga erishilgan. Jumladan, tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabarining 55 %, tibbiyot texnikomi talalarining 36 % talabalarini xotin qizlar tashkil etgan[13].

Stasionar tibbiyot o‘quv muasaasalari tizimidan tashqari tibbiyot xodimlarini tayorlash kurs tizimlari orqali amalga oshirilgan. 1934-yilda o‘rta ma’lumotli tibbiyot xodimlarini tayyorlovchi 8 kurs mavjud edi, ulardan 1128 ta o‘quvchi ta’lim olgan. Shuningdek, tish shifokorlari kursi ham faoliyat yuritgan. Bundan tashqari Toshkentda 133 nafar talabasi bo‘lgan o‘rta tibbiyot xodimlarning malakasini oshirib shifokorlikga o‘tkazish kursi va Samarqandda 293 nafar talabasi bo‘lgan xuddi shunday kurs ish olib borgan[14].

[8] Ўша жойда.
[9] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 544-иш, 82-варақ.
[10] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 544-иш, 82-варақ.
[11] Ўша жойда.
[12] Ўша жойда.
[13] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 544-иш, 83-варақ.
[14] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 544-иш, 83-варақ.

Tibbiyot o‘quv muassasalari talabalarining soni oshishi bilan bir vaqtda ularni sifatli tayyorlash masalalariga ham e’tibor qaratilgan. Jumladan barcha tibbiyot texnikomlari va tibbiyot ishchi fakultetlari talabalarningg aksariyatini mahalliy millat vakillari tashkil etib ularga o‘zbek tilida dars o‘tilgan, ammo, o‘zbek tiliga o‘quv adabiyotlarni tarjima qilish sust bo‘lgan. 1934-yilgacha tibbiyot oliy muassasalari uchun fizika, kimyo, **anatomiya** darsliklari chop etilgan, gistologiya va fiziologiya bo‘yicha darsliklar tarjima qilingan. Tibbiyot texnikomlari uchun **anatomiya**, umumiy parvarish, akusherlik, ichki kasalliklar, yuqimli kasalliklar va tropik kasalliklar bo‘yicha darsliklar chop etilgan[15].

Tibbiyot o‘quv muassasalarining moliyaviy ta’minlanishi yildan yilga o‘sib borgan. 1930-yilda ularga 1600400 **rubl** ajratilgan bo‘lsa, 1934-yilda 9008480 **rubl** ajratilgan[16].

1951-yilda Namangan shahrida 2-shahar shifoxonasi tashkil etilishi. Mazkur shifoxona bazasida shifoxona birlashmasi faoliyat yuritib, Namangan shahri aholisining yarmiga xizmat ko‘rsatgan, Namangan shahrida 100 o‘rinli yangi silga qarshi shifoxona, 5 ta qishloq ambulatoriya shifoxonalari ochildi. Undan tashqari flyuorografiya kabineti ochildi, Namangan shahrida 50 o‘ringa mo‘ljallangan bolalar shifoxonasini tashkil etish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan. Shuningdek, viloyat venerologiya dispanseri, zamburig‘ga qarshi shifoxona ishi qayta tashkil etildi[17]. 1951-yilda Namangan viloyatida VKP(b) va Stalin biografiyasini tarixini o‘rganish bo‘yicha 16 ta to‘garak tashkil qilinib unga 240 kishi qatnashgan. Bundan tashqari 1951-yilda Marksizm va Leninizm kechki universitetini 16 kishi tugangan va 1952-yilda 31 nafar shifokor mazkur kechki universitetda o‘qigan[18]. 42 nafar shifokor siyosiy va ilmiy bo‘limlarni targ‘ib qilish jamiyati a’zosi bo‘lgan. Shahar va rayondagi barcha yirik tibbiy muassasalarda devoriy gazetalar chiqarilgan. Viloyat sog‘liqni saqlash bo‘limi aparati bo‘limi xodimlaridan 8 nafari siyosiy bilimlarni oshirish ustida ishlagan va barcha ijtimoiy ishlarida faol bo‘lgan. Shuningdek, barcha tibbiy muassasalalarda muntazam ravishda mamlakatdagi va **xalq** aro siyosiy ahvol gazetalar materialari asosida siyosiy axborotlar tashkil etilgan[19]. Viloyat sog‘liqni saqlash bo‘limiga kelib tushgan arizalar kadrlar bo‘limi mudiri tomonidan hisobga olinib, arizalar 3 kun **mobaynida** ko‘rib chiqilgan, chekka joylarda esa 10 kun bazida 20 **mobaynida** ko‘rib chiqilgan. 1951-yilda jami 47 ta ariza kelib tushgan bo‘lsa ularning asosiy mohiyati tibbiy xizmatning sifati pastligi, rahbarlarning noqonuniy harakatlari, hamda uy-joylar bilan ta’minlamaganligi tashkil etgan[20].

Viloyat sog‘liqni-saqlash kadrlar bo‘limida rahbar xodimlar va mutaxassislar hisobi olib borilib, **hisobo**t O‘zSSR sog‘liqni saqlash vazirligiga jo‘natib turilgan. 1951-yilda Namangan viloyatida 12 ta rayon va shahar sog‘liqni-saqlash bo‘limlaridan 9 tasi shifokorlar bilan ta’minlangan. 2 ta vakant lavozimlar va 1 ta tish shifokori faoliyat yuritgan. 1951-yilda Namangan shahar sog‘liqni saqlash bo‘limi mudiri 2 marta almashgan. Shu yili 4 ta rayon sog‘liqni saqlash bo‘limi mudirlari almashgan. Ularning ba’zilari xizmat lavozimidan chetlatilgan bo‘lsa, ba’zilari yuqori lavozimlarga ko‘tarilganli sababli ishdan bo‘shagan[21]. Feldsher akusherlik maktabi o‘quv bo‘limi boshlig‘i shifokor B.Yunusov turmish o‘rtog‘iga “feadal boylarcha” munosabatda bo‘lganligi sababli ishdan bo‘shatilgan[22].

10 nafar rayon shahar sog‘liqni saqlash bo‘limlari xodimlaridan 7 nafari sog‘liqni saqlash ishlarini tashkil etish ishlari bo‘yicha malakasini oshirgan, 1951-yilda 2 nafari Toshkentda malaka oshirishga kelgan[23]. Namangan viloyatida 205 nafar shifokor bo‘lib, ulardan 75 nafari qishloqlarda,

[15] Ўша жойда.
[16] Ўша жойда.
[17] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 6452-иш, 1-варақ.
[18] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 6452-иш, 2-варақ.
[19] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 6452-иш, 3-варақ.
[20] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 6452-иш, 4-варақ.
[21] Ўша жойда.
[22] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 6452-иш, 5-варақ.
[23] Ўша жойда.

130 nafari shaharlarda faoliyat yuritgan bo‘lsa, shaharlarda faoliyat yuritgan shifokorlarning 116 nafari viloyat markazida xizmat qilgan[24].

1951-yilda Namangan viloyatiga 40 nafar shifokor ishga kelgan bo‘lib, ulardan 11 nafari o‘z hoxishiga ko‘ra, 29 nafari tibbiyot o‘quv yurtlaring bitiruvchilari edi. Shu yili Namangan viloyatida 52 nafar shifokor ketgan bo‘lib, ulardan 28 nafari O‘zSSR sog‘liqni saqlash vazirligi buyrig‘iga ko‘ra boshqa joylarga o‘tkazilgan, qolganlari oilaviy sharoitiga ko‘ra ishdan ketgan.

Viloyatda 422 ta shifokorlik lavozimi bo‘lib, ulardan 358 tasi band bo‘lib, qolgan lavozimlarning bo‘shligiga shifokor kadrlarning yetishmasligi sabab bo‘lgan. 63 ta shifokorlik lavozimi o‘rta tibbiy ma’lumotga ega xodimlar bilan band edi, shifokorlar yetishmasligi sababli ular o‘rindoshlik asosida 1,5-2 stavka ishlashga to‘g‘ri kelgan. Viloyatda ishlamagan shifokor va o‘rta tibbiyot xodimi bo‘lmagan[25].

Sanoat korxonalari ishchilariga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun 1951-yilda korxonalar shifokorlar va o‘rta ma’lumotli tibbiyot xodimlari bilan to‘liq ta’minlangan.

Rayon markazlaridan 6 tasida xirurglar, 7 tasida akusher ginekologlar, 10 tasida pediatorlar, 7 tasida sanitar shifokorlar, 7 tasida tish shifokorlar, 4 tasida stomatologlar rayonlarda faoliyat yuritgan bo‘lsa, 19 nafar tish shifokoridan 11 nafari shaharda va 8 nafari rayonlarda faoliyat yuritgan. 1951-yilda Namangan viloyatidan Toshkent shifokorlar malakasini oshirish institutidan 26 nafar shifokor malakasini oshirgan[26].

Sog‘liqni saqlash vazirligi rejasiga ko‘ra 1951-yil viloyatga 33 nafar bitiruvchi jo‘natilishi kerak bo‘lsa, amalda 29 nafar bitiruvchi jo‘natilib, ulardan 22 nafari qishloqlarga, 7 nafari shaharga jo‘natilgan.

Ishga kelgan shifokorlarga moddiy-maishiy sharoit yaratish yetarli bo‘lmagan, rayonlarda ularga turar joy ajratilmagan va bepul yoritish tizimi bilan ta’minlanmagan. Aksariyat shifokorlar tibbiyot muassasalarining o‘zida yashagan. O‘zSSR ministrlar savetining 1951-yil 20-noyabrdagi qarori bajarilmay qolgan. **8-varaq.** Viloyatda 1951-yilda 1030 ta o‘rta tibbiy xodimlar lavozimi bo‘lgan bo‘lsa, ularning 1015 tasi band bo‘lgan. O‘rta tibbiy xodimlar mutaxassisligi bo‘yicha quyidagicha edi; feldsherlar – 115, feldsher akusherlar – 93, akusherkalar – 84, **hamshira**lar – 258, laborantlar – 27, sanitariya feldsherlari – 15. Viloyat sog‘liqli saqlash bo‘limi o‘rta ma’lumotli tibbiyot xodimlarining malakasini joylarda shifokorlarga biriktirish, shuningdek, viloyat ba’zasida ixtisoslashtirish yo‘li bilan amalga oshirilgan. 1951-yilda viloyat bazasida 7 nafar xirurgik amaliyot **hamshira**si, 7 nafar klinik laborantlar, 2 nafar rentgen laborantlar, 2 nafar fizioterapiya **hamshira**, 1 nafar venerolog tayyorlangan[27].

Bundan tashqari to‘liq, o‘rta tibbiy ma’lumotga ega bo‘lmagan xodimlar malakasi Namangan shahridagi feldsher akusher maktabi qoshidagi 10 oylik kurslarda bajarilgan. Bu kurslarda 25 nafar kishi o‘qigan. Shifokorlar mehnatini taqdirlash uchun 1951-yilda SSSR sog‘liqni saqlash vazirining buyrig‘i bilan viloyatda 12 nafar shifokorga sog‘liqni saqlash a’lochisi qo‘qrak nishoni bilan taqdirlangan. Bundan tashqari 18 nafar tibbiyot xodimlari turli orden va medallar bilan mukofotlangan[28].

[24] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 6452-иш, 6-варақ.

[25] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 6452-иш, 6-варақ.
[26] Ўша жойда.
[27] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 6452-иш, 6-варақ.
[28] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник ҳужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 6452-иш, 7-варақ.

1952 yil 1 yanvarida Namangan viloyatida oliy ma’lumotli mutaxassislar tarkibi[29].

Jami mutaxassislar	shahar	qishloq	jami
	123	82	205
Shulardan erkaklar	42	26	68
Xotin-qizlar	81	56	137
Yosh bo‘yicha tarkibi			
25 yoshgacha	14	25	93
26-35	68	44	112
36-45	26	8	34
46-50	9	-	9
51-55	3	3	6
61 va undan katta	3	2	5
Partiyaviyligi bo‘yicha			
VKP (b) a’zosi	12	7	19
VKP (b) a’zoligiga nomzod	14	2	16
partiyasizlar	97	73	170
VLKSM a’zolari	3	10	13
O‘quv muassassini tugatgan vaqti bo‘yicha			
1916 yilgacha	2	-	2
1917-1929	6	1	7
1930-1940	34	12	46
1941-1945	35	9	44
1946-1949	34	30	64
1950	3	12	15
1951	9	18	27
O‘quv yurtini tugatgan xotin-qizlar			
1946-1949	28	23	51
1950	2	9	11
1951	7	15	27
Mutaxassislarning milliy tarkibi			
ruslar	52	24	76
ukrainlar	-	4	4
belaruslar	1	-	1
o‘zbeklar(xotin-qizlar alohida ko‘rsatilgan)	29/6	21/4	50/10
azarboyjonlar	-	1	1
armanlar	6	2	8
yahudiylar	13	12	25
tatarlar	15	9	24
koreyslar	2	4	6
polyaklar	1	-	1
Boshqa millatlar	6	3	9

[29] Ўзбекистон тиббиёт ва илмий – техник хужжатлар. Миллий архив. 1-фонд, 1-рўйхат, 6452-иш, 11-варақ.

Yuqoridagi tarixiy tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, 1930–1950-yillarda O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasi jiddiy muammolar, kamchiliklar va yetishmovchiliklar girdobida bo‘lgan. Ayniqsa, qishloq joylarda tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimi zaif bo‘lib, shifokorlar yetishmasligi, transport yo‘qligi, tibbiyot muassasalarining noto‘liq jihozlanganligi aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Tibbiyot kadrlarini tayyorlashda ham bir qancha to‘siqlar mavjud bo‘lib, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi yetarli emas edi, talabalar darslik va o‘qituvchilar bilan ta’minlanmagan, “o‘zbeklashtirish” siyosatida jiddiy kamchiliklar kuzatilgan. O‘zbek tilida ta’lim berish, darsliklarni tarjima qilish, mahalliy kadrlarni jalb qilish kabi dolzarb masalalar yetarli darajada hal qilinmagan.

Bundan tashqari, sog‘liqni saqlash muassasalarini qurish ishlari kechikkan, ko‘plab binolar notugal holda qolgan yoki boshqa ehtiyojlar uchun foydalanilgan. Kadrlar orasida partiya a’zolari kamligi va ma’muriy barqarorlikning yo‘qligi (rahbarlarning tez-tez almashinishi) ham tizimdagi beqarorlikni kuchaytirgan.

Shu bilan birga, Namangan viloyati misolida 1950-yillar oxiriga kelib sog‘liqni saqlash tizimini yaxshilash bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Yangi shifoxonalar tashkil etilgan, kadrlar soni va sifatini oshirish choralari ko‘rilgan, tibbiy xizmatning qamrovi kengaytirilgan, sog‘liqni saqlash xodimlarining siyosiy va kasbiy saviyasini oshirish ishlari amalga oshirilgan.

Xulosa sifatida, 1930–1950-yillar davri O‘zbekiston sog‘liqni saqlash tizimining shakllanish va rivojlanishida o‘ta murakkab, ammo muhim davr bo‘lgan. Muammolarga qaramasdan, bu davrda asos solingan tizim keyingi yillarda sog‘liqni saqlash sohasining barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi markaziy arxivi. F. R-2458, op. 1, d. 112, 134, 148, 167, 185.

2. Qodirov, Q. (2005). O‘zbekistonda tibbiy ta’lim va sog‘liqni saqlash tarixidan. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.

3. Ro‘ziyev, K. (1998). O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimining rivojlanish bosqichlari (1917–1991). Toshkent: Fan.

4. A’zamova, M. (2007). Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va ularning ijtimoiy ahamiyati. Toshkent: Ma’naviyat.

5. Mahmudov, N. (2010). SSSR davrida O‘zbekistonda tibbiy xizmat ko‘rsatish masalalari. Samarqand: SamDU nashri.

6. Xo‘jayeva, S. (2020). “20-asrning birinchi yarmida O‘zbekistonda tibbiy kadrlar tayyorlash va ularning mahalliylashuvi masalalari”. // O‘zbekiston tarixi masalalari, №2, 45–55-betlar.

7. Sovet xalq xo‘jaligi ommaviy statistika byulleteni. (1935–1955). Moskva: Gosstatizdat.

8. Xaydarov, A. (2015). O‘zbekistonda qishloq tibbiyotining tarixiy rivojlanishi. Toshkent: Iqtisodiyot.

9. Central Asian Medical University yearbooks (1930–1950). Toshkent: Davlat nashri.

10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. (2003). O‘zbekiston ta’lim tizimi tarixi. Toshkent: O‘qituvchi.